



УДК159.9(575.1)

Bibish JO‘RAYEVA,

BuxDU o‘zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari doktori

E-mail: bibish.jrayeva@mail.ru

Maftuna SHARIPOVA,

Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Buxoro viloyati hududiy bo‘linmasi o‘qituvchisi

E-mail: behruz.lux.stal.93@mail.ru

BuxDU professori Y.Saidov taqrizi asosida

CLASSIFICATION OF UNITS OF THE DICTIONARY SPIRITUAL GROUP “SHEEP” IN “DEVONU LUG‘OTIT TURK”

Abstract

Mahmud Kashgari’s Devonu lug‘otit turk is a valuable dictionary that provides information about the past life, way of life, customs and traditions of the Turkic peoples. For this reason, various researches have been carried out and are being carried out on the information contained in the dictionary. This article discusses a number of units belonging to the lexical spiritual group “sheep” in “Devonu lug‘otit turk”. Processes related to the LSG “Sheep” were explained in groups. It has been compared and analyzed with other fiction and non-fiction literature on the subject.

Key words: lexical-spiritual group, hierarchy, animal husbandry, sheep, lexeme, classification.

КЛАССИФИКАЦИЯ ЕДИНИЦ СЛОВАРНОЙ ДУХОВНОЙ ГРУППЫ «ОВЕЦЫ» В «ДЕВОНУ ЛУГОТИТ ТУРК»

Аннотация

«Девону луготит турк» Махмуда Кашгари - ценный словарь, который дает информацию о прошлой жизни, образе жизни, обычаях и традициях тюркских народов. По этой причине были проведены и проводятся различные исследования информации, содержащейся в словаре. В статье рассматривается ряд единиц, относящихся к лексической духовной группе «овца» в «Девону луготит турк». Процессы, связанные с ручным пулеметом «овца», объяснялись в группах. Его сравнивали и анализировали с другой художественной и научно-популярной литературой по этой теме.

Ключевые слова: лексико-духовная группа, иерархия, животноводство, овца, лексема, классификация.

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDA “QO‘Y” LUG‘AVIY MA‘NOVIY GURUHIGA OID BIRLIKLAR TASNIFI

Annotatsiya

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari turkiy xalqlarning o‘tmish hayoti, turmush tarzi, urf-odat, an‘analari to‘g‘risida ma‘lumot beruvchi qimmatli lug‘at hisoblanadi. Shu sababli lug‘atda aks ettirilgan ma‘lumotlar yuzasidan turli xil tadqiqot ishlari amalga oshirilgan va oshirilmoqda. Ushbu maqolada “Devonu lug‘otit turk” asaridagi “qo‘y” lug‘aviy ma‘noviy guruhiga oid bir qator birliklar xususida mulohaza yuritildi. “Qo‘y” LMGi bilan bog‘liq jarayonlar guruhlariga ajratilgan holda izohlandi. Mavzuga doir boshqa badiiy va ilmiy adabiyotlar bilan qiyosiy o‘rganildi hamda tahlil jarayoniga tortildi.

Kalit so‘zlar: lug‘aviy ma‘noviy guruh, darajalanish, chorvachilik, qo‘y, leksema, tasnif.

Kirish. Til, falsafa va badiiy ijodning o‘ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan o‘zbek xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan janridir. Maqollar mavzu jihatidan xilma-xil bo‘lib, olimlarimiz ularni mazmuniga, tashiydigan ma‘nosiga ko‘ra tadqiq etgan va kitob holida nashr ettirgan. Bu an‘ana turkiy xalqlarda lug‘atchilik sohasining asoschisi Mahmud Koshg‘ariydan boshlangan. Uning “Devonu lug‘otit turk” asarida xalq og‘zaki ijodiga oid 300 dan ortiq she‘riy parchalar, 291 ta maqol va matal keltirilgan. Bu matnlar tarkibida 200 ga yaqin zoonim, jumladan, uy hayvonlari sirasiga kiruvchi “qo‘y” LMGiga oid 80 dan ortiq birliklar va 4 ta xalq maqoli uchraydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari o‘zbek tili tarixida yaratilgan asarlar orasida o‘zining ilmiy qiymatiga ko‘ra alohida o‘rin tutadi. U bu asar ustida uzoq yillar ishladi, ko‘p yillar yurtma-yurt kezib ma‘lumot to‘pladi, turkiylar yashagan keng va katta hududni kezib chiqdi, urug‘lar, qabilalar, xalqlarning turmush tarzini, urf-odatlarini, kasb-korlarini, turar joylarini, nufuzlarini aniqlaydi va ularning tillariga xos xususiyatlarini sinchiklab o‘rganadi.

Mahmud Koshg‘ariy izlanishlari natijasida turkiy qabilalarning deyarli barchasini va ularning tillarini juda puxta va mukammal aniqlashga muvaffaq bo‘ldi. Har bir so‘zning qaysi qabilaga tegishli ekanini, so‘zlarning ma‘no va shakl xususiyatlarini, ularning qadimgi va hozirgi variantlarini, qabilalar tillaridagi so‘zlarning talaffuzdagi moslik va farqlarni har tomonlama aniqlab chiqdi. O‘z fikrini dalillash uchun xalq qo‘shiqlari va maqollaridan keng foydalandi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari, birliklarini ma‘noviy jihatdan o‘rganishda dialektikaning shakl va mazmun birligi, miqdor va sifat o‘zgarishlari haqidagi ta‘limoti metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Misollar tahlilida tavsifiy, miqdoriy, sistemaviy-struktur, komponent tahlil, shuningdek, matniy va qiyosiy metodlaridan ham foydalanib ish ko‘rildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). XI asrda yashab ijod etgan etnograf, filolog, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asoschisi Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Koshg‘ariyning bahosiga jahon xazinalari kamlik qiluvchi [1,4] “Devonu lug‘otit turk” asari – butun turkiy xalqlarning nodir manbasi. S.Rustamora ta‘kidlaganidek: “Devonu lug‘otit turk”da turklarning hayot kechirishi uchun zarur ashyolar, urug‘-qabilalar, turli lavozim, oziq-ovqat, yovvoyi va uy hayvonlari, parranda va yovvoyi qushlar; o‘simliklar, oy, hafta, kun, shahar, turli kasallik, metall va mineral nomlari; faxriy unvon, xalq taqvimini, jo‘g‘rofiy, astrologik, anatomik,

harbiy va ma'muriy vazifalarga oid atamalar uchraydi [4,124-125]. Kitob o'zida shu qadar ko'plab rang-barang ma'lumotlarni mujassam etganki, ularni tahlil va tavsif qilish uchun ko'p yillar kerak bo'ladi [1, 4].

Uy hayvonlari turkiy xalqlar turmushida alohida o'rin egallaydi.

Qo'y – go'sht, jun, sut va teri olish uchun boqiladigan juft tuyoqli, kavsh qaytaruvchi uy hayvoni [7, 631]. Qo'ylar yovvoyi qo'y – *mufloodan* kelib chiqqan. Qo'y bundan 8 ming yil avval xonakilashtirilgan [5, 198].

Qo'y asrlar mobaynida inson hayotida muhim oziq-ovqat mahsuloti (go'shti, yog'i), kiyim-kechak (teri, juni) sifatida katta rol o'ynagan [8, 129].

“Devonu lug'otit turk” asarida uchraydigan “qo'y” LMGi bilan bog'liq birliklarni quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin:

I. Qo'y saqlanadigan joy nomlari:

– *ag'il* – og'il, **qo'y og'ilxonasi**; o'g'uzlar qo'yning qiyini ag'il deyilar. Bir-biriga yaqin turgani natijasida kelib chiqqan. Chunonchi, yomg'irni ham, bulutni ham sama deb aytilgani kabi (I, 56). Ikki xil tushunchaning aynan bir xil nomlanishi natijasida, o'zbek va uyg'ur tillari orasidagi farqlanishni yaqqol kuzatish mumkinligi ifodalangan.

– *qasi* – **qo'y** va boshqalarni sovuqdan saqlash uchun yog'ochdan qilingan **og'ilxona**. Boshqasi ham shunday. Qasi badim – og'ilxona soldim (III, 244).

II. Yoshiga ko'ra darajalanish:

Devondagi qo'y nomlarini o'zaro mazmun o'xshashliklari va farqlari asosida muayyan qatorlarga, guruhlariga birlashtirish ham mumkin:

1. Yoshni ifoda etadigan darajalanish qatori:

1) *balder qozi* – ertagi qo'zi (I, 425).

2) *baqlan* – baqlan qo'zi – yosh va semiz qo'zi (I, 415).

3) *toqli* – to'qli, olti oylik qo'chqor, qo'zi (I, 405).

4) *tishak* – ikki yoshli qo'y (I,368).

Shuningdek, O'TILda “**g'o'non** – ikki yashar ayg'ir yoki qo'chqor” [7, 464], “**do'non** – uch yoshga to'lib, to'rt yoshga o'tgan ot yoki tuya; ikki yoshga to'lib, uch yoshga qadam qo'ygan qo'y yoki echki” [6, 667] tarzida izohlangan.

Demak, turkiy xalqlarda ikki yoshli qo'y *tishak*, *g'o'non*, *do'non* nomlari bilan atalgan.

5) *irk* – qo'y, to'rt yoshga qadam qo'ygan qo'y (I, 78). Man jashlig' qoj – to'rt yashar qo'y. Bu so'z qo'ydan boshqa hayvonga nisbatan qo'llanmaydi (III, 172).

III. A'zolari va mahsuloti bilan bog'liq nomlar tasnifi:

1) a'zosi bilan bog'liq nomlar:

a) ot so'z turkumi:

– *karko'k* – qo'yning qat-qat qorni ichidagi katakchalarga o'xshash narsa (II, 334);

– (qoj) *bashi* – maqolda shunday kelgan: Qorqmish kishiga qoj **bashi** qosh korunur – qo'rqqan odamga har qo'yning boshi juft ko'rinadi. Bu maqol har narsadan qo'rqqan, hatto, u narsani xayol qilganda ham har vaqt qo'rqadigan kishiga nisbatan aytiladi (III, 139).

Haqiqatan ham, biror narsadan cho'chigan, hadiksiragan odamga oz xavf-xatar ham qo'sh ko'rinadi.

b) fe'l so'z turkumi:

– *meniladi* – er meniladi – odam miyani yedi. Asli to'g'risi shudir. So'ng bu so'z miya uchun qo'y so'yish kerak degan ma'nodadir. Bu qo'yning eng qimmatli a'zosisidir. Birov hurmati uchun **qo'y** so'yilib, **miya** taqdim qilish eng buyuk hurmatdir. So'ng bu so'z o'rnida yaxshi taomi bor har bir odam uchun ham ataladigan bo'lgan (III, 413).

Demak, turkiy xalqlar orasidagi udumga ko'ra qadrlil mehmon uchun qo'y so'yilgan va eng qadrlil mehmon uchun miya – qo'yning eng qimmatli a'zosi taqdim qilingan. Bu odat hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan.

– *eritti* – ol qozi eritti – u **qo'zini** axta qildi (**moyagini** chiqarib oldi) (I, 215).

Bu jarayon erkak qo'zilar ustida amalga oshirilishi keyingi ilmiy adabiyotlarda ham qayd etib o'tilgan:

Mayin junli va yarim mayin junli qo'ylar bahorda jun qirqimi oldidan, bir yoshligida bonitirovka qilinadi. Barra terisi uchun boqiladigan qo'ylar 1-2 kunligida, po'stinbop qo'ylar esa 7-8 oyligida, dag'al junli boshqa qo'ylar (shu jumladan go'shtdor-yog'dor qo'ylar) kuzda jun qirqimi oldidan bonitirovka qilinadi [9, 213]. Bu jarayon erkak qo'zilar ustida amalga oshiriladi. Ular naslchilikka emas, balki mahsulot manbaiga xizmat qiladi.

Ushbu jarayon ham turkiy xalqlar hayotida qadimdan mavjudligini Koshg'ariy o'z asarida ta'kidlab o'tgan.

– *cho'jdi* – cho'zdi. Urag'ut jip cho'jdi – xotin ipni cho'zdi. **Qo'y ichagi**, arqon kabi tortib cho'zish mumkin bo'lgan har bir narsaga ham bu so'z qo'llanadi. Bu so'z ham ikki jag' orasidagi j bilan aytiladi (cho'jar, cho'jmak) (II, 16).

– *cho'jto'rdi* – cho'zdirdi. Ol jipig' cho'jto'rdi – bo'shshagan arqonni torttirdi. Qo'y ichagini artishga ham bu so'z qo'llanadi (cho'jto'rur, cho'jto'rmak) (II, 209).

– *mo'no'zlandi* – shoxlandi, shox chiqardi. Qozi mo'no'zlandi – qo'zi shox chiqardi. Boshqasi ham shunday (mo'no'zlanur, mo'no'zlanmak) (III, 415).

2) yungi va u bilan bog'liq mahsulotlar nomi:

a) ot so'z turkumi:

– *qars* – tuya yoki **qo'y yungidan** qilingan kiyim (I, 333);

– *jo'n* – yung, tuya yoki **qo'yning yungi** (III, 373).

b) fe'l so'z turkumi:

– *utuldi* – yungi kuydirildi, utildi. Qoj bashi o'to'ldi – **qo'y** kallasining **yungi** utib olindi. Boshqasida ham qo'llanadi (I, 201).

– *junglatti* – yungini qirqtirdi, oldirdi, kestirdi. Ol qojug' junglatti – u **qo'yning yungini** kestirdi. Tuya uchun ham bu so'z qo'llanadi (junglatur, junglatmaq) (II, 415).

– *junladi* – yungini qirqdi. Ol kojun junladi – u **qo'yining yungini** qirqdi. (junlar, junlamaq) (III, 412).

– *qirqdi* – ol kojun qirdi – **qo'yning yungini** qirqdi. Boshqasi ham shunday. (qirqar, qirqmaq) (III, 428).

2) terisi va u bilan bog'liq mahsulotlar nomi:

a) ot so'z turkumi:

– *ichmak* – qo'zi terisidan qilingan po'stin (I,127).

– *qujqa* – teri. Bu soʻz aslida teriga qoʻllansa ham, baʼzan poʻstinga nisbatan qoʻllanadi. Ol qojugʻ qujqaladi – u qoʻyning terisini qaynoq suvda tozaladi. Teri tukdan tozalandi va ochiq koʻrindi (III, 188).

b) feʼl soʻz turkumi:

– *joʻztoʻrdi* – ol anar koj joʻztoʻrdi – u unga qoʻy terisini shildirdi. Boshqasi ham shunday (III, 105).
 – *sojushdi* – shilib olishdi. Ol mana teri sojushdi – u menga qoʻy terisini shildirishga yordam berdi. Boshqasi ham shunday. Shuningdek, bu soʻz tuxum poʻchogʻini, daraxt poʻstlogʻini ajratishda ham qoʻllanadi. (sojushur, sojurmaq) (III, 205).
 – *sojuldi* – shilindi. Qoj terisi sojuldi – qoʻy terisi shilindi (III, 207).
 – *sojdi* – er qojugʻ sojdi – odam qoʻy terisini shildi. Boshqasi ham shunday. (sojar, sojmaq) (III, 262).

4) qiyi (oʻgʻit):

a) ot soʻz turkumi:

– in – **qoʻy qiyi**; bu soʻzning jin shakli ham bor (I, 84). Jin shaklining mavjudligini quyidagicha izohlash mumkin: qipchoq shevasida odatdagi y oʻrniga qorishiq *j* undoshi talaffuz etiladi: *jol joq, jorgek, joman, jil, jiladi* va b. (ad.-orf. yoʻl, yoʻq, yoʻrgak, yomon, yil, yigʻladi). *Uzum* soʻzi (qadimda yuzum shaklida ishlatilgan boʻlsa kerak) boshida ham *j* aytiladi: juzum [3, 16].

Fikrimizcha, *in* soʻzining ham yin shakli boʻlishi ehtimoldan xoli emas.

– *chalma* – chalma, **qoʻy**, tuya va boshqa mollar **qiyidan** kesib olib, qishda yoqish uchun quritiladigan tezak (I, 407).

– *jin* – tezak. Qoj jini – **qoʻy qumalogʻi** (III, 11).

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, asarda “qoʻy” LMGi aksariyat ijobiy semalarni ifodalab kelganini kuzatish mumkin.

“Qoʻy” leksemasi qoʻy saqlanadigan joy nomlari; yoshni ifoda etadigan darajalanish qatori; aʼzolari va mahsuloti bilan bogʻliq nomlar tasnifi kabi uchta katta guruhga ajratilgan holda izohlandi. Bu guruhlar, oʻz navbatida, kichik guruhlarga boʻlinib, soʻz turkumlari boʻyicha tahlilga tortildi.

Asarni oʻrganish davomida “qoʻy” leksemasi xalqimiz oʻtmish hayotida, turmush tarzida qay darajada oʻrin tutganini kuzatdik. Yurtimizning boy tarixini har tomonlama oʻrganish, uning taraqqiyot bosqichlariga xos jihatlarni umumlashtirish bugungi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi. Demak, “Devonu lugʻotit turk” – oʻzbek xalqi tarixida muhim ahamiyatga ega noyob manba. Uni oʻrganish, tadqiq qilish bugungi kun yoshlarining burchidir.

ADABIYOTLAR

1. Абдулахатов Н., Тошпўлатов И., Носирова У., Жўрабаева У. Махмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк” асаридаги лексик бирликлар тадқиқи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – 53 б.
2. Қошғарий М. Devonu lugʻotit turk. Uch tomlik. I tom. – Toshkent: Fan, 1960. – 499 B. II tom. – Toshkent: Fan, 1961. – 427 B. III tom. – Toshkent: Fan, 1961. – 463 b.
3. Mirzayev M. Oʻzbek tilining Buxoro gruppasi shevalari. . – Toshkent: Fan, 1969. – 160 b.
4. Рустамора С. Махмуд Қошғарий ва унинг “Девону луғотит турк” асари // Адабиёт кўзгуси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, № 2, 1996. – 156 б.
5. Zoologiya. 7-sinf: Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 7-sinfi uchun darslik/O. Mavlonov. – Tuzatilgan va toʻldirilgan toʻrtinchi nashri. – Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 208 b.
6. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 5 jildlik. 1-jild. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 632 b.
7. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 5 jildlik. 2-jild. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 717 b.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2005. – 528 б.
9. Chorvachilik. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1980. – 380 b.